

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'imi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

- X. Gulyamova, U. Shermatova 79** Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "piris" nazoratiga tayyorlash
- A. Karimjonov, O. Jabborova 83** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi
- Z. Shanasirova 86** Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- R. Nosirova, N. Rustambekova 89** O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish texnologiyalari



JISMONIY TARBIIYA VA SPORT

- E. Soatov 93** Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish
- F. Abdullayev B. Abdullayeva 97** Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'rni
- A. Jo'raboyev 101** Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri
- E. Hurramov 104** Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga umumiy tasnif



MAKTABGACHA TA'LIM

- N. Maripova 107** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikasiya yasash usullarini o'rgatish
- A. Sanakulova 111** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar
- Z. Teshabayeva 114** Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish
- L. Narimbayeva 117** Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida teatrning roli
- N. Urinova, A. Abdullayev 121** Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati
- Z. Nasirova 124** Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatik aspektlari
- S. Xolmatova 128** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

- Z. Narimbetova 131** Matematika darslarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Ш. Мардонов, У. Закирова 134** Об основных понятиях педагогических ценностей
- Ю. Кушназарова 138** Теоретические исследования в математике



ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

- Р. Гимазутдинов 141** Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников

Salima XOLMATOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirishni takomillashtirish masalasi yoritilgan. Shuningdek, bolalarning matematik tafakkurini rivojlantirish bo’yicha qator uslubiy tavsiyalar berib o’tilgan.

Kalit so’zlar. Maktabgacha tarbiya, tafakkur, faoliyat, ilmiy-pedagogik, omil, ko’nikma, malaka.

В статье рассматривается вопрос совершенствования формирования математического мышления у детей дошкольного возраста. Он также дал ряд методических рекомендаций по развитию математического мышления у детей.

Ключевые слова. Дошкольное образование, мышление, деятельность, научно-педагогическое, фактор, умение, квалификация.

The article deals with the issue of improving the formation of mathematical thinking in preschool children. He also gave a number of methodological recommendations for the development of mathematical thinking in children.

Key words. Preschool education, thinking, activity, scientific and pedagogical, factor, skill, qualification.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2707-sonli qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas.

Mazkur qaror maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini birday rivojlantirish, mazkur tizimga ilg’or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pedagoglarning innovatsion faoliyati ko’lamini darajasini kengaytirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim qamrovini to’liq ta’minlash, bolalarni maktabga tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish kabi vazifalarni yanada dolzarblashtirdi.

Bu o’z navbatida, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yangicha yondashuv asosida takomillashtirish, ularda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish imkonini beradi. Buning uchun dastlab ta’lim oluvchilarda matematik tushunchalar hosil qilinadi.

Ma'lumki matematik tushunchalar haqida tasavvurlar hosil qilishda nazariy ma'lumotlarning o'рни katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida bolalarga matematikani o'qitishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, atrof-muhitdagi borliqni o'rganishni ochib berish;

– bolalarga matematika kursining nazariy asoslarini o'rgatish, matematika kursini chuqurroq o'zlashtirishlari uchun zarur ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

– maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachilari uchun o'quv qo'llanmalar, ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish.

Matematika (yun, matematike, mathyema-bilim, fan) – aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan bo'lib, dastlabki obyekt sanoq bo'lgani uchun ko'pincha unga “hisob-kitob haqidagi fan” deb qaralgan.

Matematika eng qadimgi fan sohasi bo'lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o'tgan va buning barobarida “Matematika nima?” degan savolga javob ham o'zgarib, chuqurlashib borgan.

Matematika kursini o'rganishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari matematika fani tarixi bilan tanishadilar.

Matematikaning rivojlanish davrlarini A.N.Kolmogorov quyidagicha bayon etgan edi:

• matematikaning paydo bo'lish davri (kishilik jamiyati paydo bo'lgandan to mil. avv. VI-V asrlargacha);

• elementar matematika davri (milod. avv. VI-V asrlardan to milodning XVI asrgacha);

• o'zgaruvchi miqdorlar matematikasi davri (XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha);

• hozirgi zamon matematikasi davri (XIX asrning ikkinchi yarmidan to hozirgi davrgacha).

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim jarayonida birinchi navbatda, son, hisoblash usullari elementlari ularning matematik tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

Agar maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tafakkuri rivojlanmasa, matematik bilim saviyasi sayoz bo'lsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga xos yangi o'qitish uslublaridan foydalanmasa maktabda o'qituvchilar o'quvchilarga matematikadan qanday dars o'tishi mumkin?

Matematika fani o'zining aniqlik darajasi bilan barcha tabiiy fanlarning asosi hisoblanadi. Bolalarning matematik tushunchalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, ularning idrokini, ya'ni sensor tuyg'ularini o'stirish bilan bevosita bog'liqdir. Umumlashtirish va mavhumlashtirish qobiliyati real predmetlarning xususiyatlarini aniqlash va shu xususiyatlarga qarab mazkur predmetlarni bir-biriga taqqoslash va guruhlariga ajratish asosida o'sib boradi. Shuning uchun bola maktabga borgunga qadar unda matematik tafakkurini shakllantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasidagi barcha o'quv-tarbiya ishlari bilan uzviy ravishda bog'lab maxsus ish olib boriladi. Matematik bilimlar bolalarga ma'lum sistema va izchillikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq miqdorda, ya'ni bolalar o'zlashtirib oladigan darajada bo'lishi kerak. Shuning uchun ham bir vazifa bir qancha mayda qismlarga bo'linib, ular birin-ketin o'rganib boriladi. Tarbiyachi har bir yosh guruhining dasturi qanday tuzilganini bilishi lozim. Bu unga o'z guruhidagi bolalarning matematikaga doir bilim darajalarini aniqlash uchungina emas, balki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda boshlang'ich matematik tasavvurlarni o'stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar tizimida har bir mashg'ulotning qanday muhim o'rin egallashini ko'z oldiga keltirish uchun ham imkon beradi. Matematik tafakkurlarni

shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishning asosiy shakli – mashg'ulotdir. Dastur vazifalarining ko'pchilik qismi mashg'ulotlarda hal qilinadi. Bolalarda ma'lum izchillikda tasavvurlar shakllantiriladi, zarur malaka va ko'nikmalar hosil qilinadi. Atrofdagi hamma narsani miqdor jihatidan kuzatishlarni uyushtirishga, bolalarning o'z faoliyatlarining xilmaxil turlarida matematik mazmundagi bilim va ko'nikmalaridan qanday foydalanishlariga katta ahamiyat beriladi. Mashg'ulotlarda va kundalik hayotda didaktik o'yinlardan hamda o'yin-mashqlardan keng foydalaniladi. Mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda o'yinlar tashkil qilib, bolalarning matematik tafakkurlari mustahkamlanadi, chukurlashtiriladi va kengaytiriladi. Bir qancha hollarda, masalan, joyni bilish ko'nikmasini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarda o'yinlar asosiy o'quv vazifasini o'taydi. Mashg'ulotlarda bolalarning aktiv faoliyati birinchi navbatda yangi material ustida ishlashni hamda ilgari o'tilgan materialni takrorlashni birga to'g'ri olib borish bilan ish turlarini va uni tashkil etish usullarini almashtirib turish bilan ya'ni, mashg'ulot tuzilishi bilan taqsimlanadi. Mashg'ulot tuzulishi dastur vazifalarining hajmi, mazmuni, birga qo'shib olib borilishi, tegishli bilim va ko'nikmalarining o'zlashtirilishi darajasi, bolalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Maktabga borish davriga kelib bolalar to'plam va son, shakl va katalik haqida o'zaro bog'langan bilimlarni nisbatan ko'prok egallagan, fazoda va vaqtni mo'ljalgacha olishni bilishni o'rgangan bo'lishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning matematik tushunchalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, ularning idrokini, ya'ni sensor tuyg'ularini o'stirish bilan bevosita bog'liqdir. Tarbiyachi o'z tushuntirishlarida bolalarning individual javoblari vaqtida bolalarning fikrlash faoliyatini doimiy ravishda faollashtirib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. *Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.* – T.: TDPU 2017.
2. Bikbayeva N.U va b. *Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish.* – T., 1996.
3. Bikbayeva N.U. *Bolalar bog'chasida matematika mashg'ulotlarini rivojlantirish.* – T., 1998.